



**Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik ongni
shakllantirishda oilaning pedagogik roli**

Dadaboyeva Madinaxon Aziz qizi

Qo'qon Universiteti 2- bosqich talabasi

Rahmatullayeva Xavasxon Baxromovna

Qo'qon Universiteti Ta'lim fakulteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada oilada ekologik tarbiyaning nazariy-metodik asoslari, uning bolalar ongini shakllantirishdagi roli hamda boshlang'ich ta'lim bosqichidagi pedagogik ahamiyati atroflicha tahlil qilinadi. Ekologik madaniyatni shakllantirish jarayonida oilaning ijtimoiy institut sifatidagi tutgan o'rni, ayniqsa, muhim omil sifatida ko'rsatib o'tiladi. Tadqiqotda texnologiya darslari orqali o'quvchilarda tabiatga nisbatan ongli munosabat, ekologik tafakkur va amaliy ko'nikmalarni shakllantirish usullari asoslab berilgan. Shuningdek, bolalarni tabiatni asrash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va barqaror rivojlanish tamoyillariga sodiqlik ruhida tarbiyalashning zamonaviy yondashuvlari yoritilgan. Maqolada ilgari surilgan ilmiy xulosalar va amaliy tavsiyalar ekologik ta'lim-tarbiyaning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Oila, ekologik tarbiya, boshlang'ich ta'lim, texnologiya darslari, ekologik madaniyat, ekologik ong, barqaror rivojlanish, pedagogik yondashuv, amaliy ko'nikma, ekologik tafakkur.



KIRISH

Yurtimizda jismonan yosh avlodning dunyoga kelishi va rivojlanishi uchun barcha zarur sharoitlar yaratilmoqda. Sogʻlom turmush tarzini shakllantirishni toza atrof-muhitsiz, boshqacha qilib aytganda ekologik xavfsiz tabiiy muhitsiz bir yoqlama tasavvur etib boʻlmaydi. Sogʻlom turmush tarzi hamda atrof tabiiy muhit bir-biri bilan oʻzaro chambarchas bogʻlangandir. Sogʻlom atrof tabiiy muhit, tabiiy muhitning toza va musaffoligi bolalarning sogʻlom va yetuk voyaga yetishining asosiy omillaridan biridir.

Ekologik muammo taraqqiyot, xavfsizlik, aholining turmushi va bevosita odamlar hayotining davomiyligiga taʼsir koʻrsatib, ayniqsa aholining eng yosh qismi boʻlgan bolalar hayotiga katta xavf soladi. Sir emaski, ifloslangan, zaharlangan atrof-muhit birinchi navbatda hali yosh, endi rivojlanib shakllanib borayotgan organizmga katta taʼsir koʻrsatadi, uning fiziologik va ruhiy rivojlanish holatiga ham taʼsir etmay qolmaydi.

Ayniqsa, hozirgi paytda oilada ekologik omil va talablarga asoslanib sogʻlom turmush tarzini shakllantirish masalalari muhim kasb etmoqda. Bizning nazarimizda, oila – oila aʼzolari oʻrtasida sogʻlom turmush tarzini shakllantirish, unga rioya qilish va targʻib qilish, zararli odatlarni oldini olish, toza musaffo tabiiy muhitni qaror toptirishning kichik yorqin modeli hisoblanadi. Oila aʼzolarining munosabati, xoʻjalik yuritish uslubi, tartib-qoidalari va odat-koʻnikmalari – oilaning qadriyatlarini belgilaydi.

Koʻp ming yillik jamiyatimiz tarixi shundan dalolat beradiki, oilada maʼnaviy-ekologik qadriyatlarga va uning qaror topishiga katta eʼtibor berilgan. Oxirgi yuz yillikda respublikamiz ekologik tizimiga katta salbiy taʼsir yetkazildi, ajdodlarimizning tabiatdan foydalanish borasidagi xalq udumlari va anʼnaviy odob-axloq qoidalari unutib yuborildi.

Xalqimiz boy ekologik madaniyatga ega. Asrlar davomida shakllanib kelgan boy milliy maʼnaviy qadriyatlarimiz va merosimiz shundan dalolat beradiki, ota-bobolarimiz, ajdodlarimiz Ona zaminga oʻzgacha munosabatda boʻlib, suv, tuproq, havoni qadrlaganlar. Tabiat boyliklari va uning ehsonlarini asrab-avaylab, ulardan tejamkorlik bilan



foydalanganlar. Ma’naviyatimiz poydevori hisoblangan muqaddas hadislarda: “Yenglar, ichinglar, isrof qilmanglar”, deyilgan. Isrof qilmaslik, uvol, gunoh va me’yor kabi tushunchalarni yaxshi anglab yetganlar va kundalik turmush faoliyatida ularga qat’iy amal qilganlar.

Atrof-muhitni, uyni, mahallani, ko‘cha-kuyni, shahar, qishloq, ovullarni, bozorlarni, ariqlarni, hovuzlarni toza, saranjon-sarishta tutganlar. Boshqacha aytganda, ekologik ma’naviyatga, ekologik qoida va mezonlarga to‘la amal qilganlar. Daraxtzor, bog‘-rog‘larni yaratilganligi haqida tariximizdan ko‘plab ma’lumotlarni keltirish mumkin. Bog‘ yaratish san’atiga xalqimiz azaldan ega bo‘lgan. Oilada farzand tug‘ilsa unga atab daraxt ekilgan. Tirik jonivorlarga ozor yetkazilmagan. Tabiat bilan uyg‘unlikda hayot kechirishgan, yashash muhitiga, tabiatga nisbatan loqaydlik, befarqlik qoralangan, va pirovard natijada tabiat muvozanatini saqlagan.

Xalqimizda yaxshi bir naql bor: “Atrof-muhit tozaligi uyning ostonasidan boshlanadi.” Har bir xonadonning sarishtaligi, obodligi uning ostonasida, ko‘cha-kuy, hovli-joyi toza va saranjom tutishda bilinadi. “Qush uyasida ko‘rganini qiladi” deganlaridek, ota-onalar bolalarga tabiat in’om etgan yer va suvni asrab-avaylash, tuproq va havoni ifloslantirmaslik, o‘simlik-yashillik olamini saqlash haqidagi o‘gitlarni doimiy ravishda singdirishlari va ularning hayot me’zoniga aylantirishlari talab etiladi. Bolalarimizga, yurtimiz uchun tobora qadrlı bo‘lib borayotgan ichimlik suvdan tejab-tergab foydalanish munosabatini shakllantirish ayniqsa, o‘ta muhim masaladir.

Yer va suv umummilliy boylik hisoblanib, xalq farovonligining asosiy manbaidir. Shu bilan birgalikda, inson salomatligi ham millat boyligi hisoblanadi. Binobarin, toza ichimlik suvi har bir oilaning sog‘lom hayot yuritishining muhim sharti hisoblanadi. Bugungi avlod o‘shib ulg‘ayib insonlar hayoti va atrof-muhitni asrab-avaylash haqida hal qiluvchi qarorlar qabul qilishi kerak bo‘ladi. Ota-onalar, kattalar tomonidan oilada bolalarga birlamchi ekologik madaniyat saboqlari beriladi. Tabiatdagi sodir bo‘layotgan hodisa va o‘zgarishlarning bevosita har bir kishining salomatligiga, ruhiyatiga, kayfiyatiga



ta'sirini ota-onalar o'z bolalariga astoydil tushuntirsalar, bu o'gitlar bola ko'nglida muhrlanib, narsa, hodisalarni bilishga hamda oqilona hatti-harakatlarga rioya qilishlariga ularning intilishlari oshadi.

Avvalo, bolalarimizda ekologik madaniyat saboqlarini shakllantirishda kattalarning tabiatga, atrof-muhitga bo'lgan munosabati katta o'rin tutadi. Ota-onalarning atrof-muhit tozaligini saqlashga bo'lgan doimiy e'tibori, sa'y-harakatlarini ko'rgan va his qilgan bolalar, ular orqasidan ergashishga harakat qilishadi, ulardan namunai amal olishadi. Erta bahorda hovli va ko'chada oila davrasida birgalikda daraxt ekish, uni parvarish qilish, obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ishlarini amalga oshirish, hovlini obod qilish har bir bola uchun yaxshi namuna maktabini o'taydi hamda atrof-muhitga bo'lgan ezgu va bunyodkorlik munosabatini belgilashda zamin yaratadi.

Ko'kalamzorlashtirish jarayonlariga jalb etilgan bolalarning o'z navbatida estetik dunyoqarashi va tafakkuri kengayib boradi, tabiatdan, uning boy xilma-xil ranglaridan ma'naviy estetik zavq olishi, tabiatga oshnolik hissi kuchayadi. Gullarning chiroyini, hidi va jozibasini yoqtirmaydigan bolaning o'zi yo'q. Xonadonimizda madaniy gullarni ko'paytirish va parvarish qilish ekologik tarbiyaning yaxshi unumli vositasi bo'lib, bolalarning ekologik ongini rivojlantiradi. Xonadondagi gullar, yashil o'simliklar o'z navbatida havoni kislorod bilan ta'minlab bolalarimizning toza havo bilan nafas olishini ta'minlaydi. Ayniqsa, qizlar gullarga oshno bo'ladilar, o'g'il bolalar esa tirik jonivorlarni parvarish qilishga moyil bo'ladilar.

Ota-onalar bolalarning erta yoshligidanok bu moyilliklarni aniqlab, bu yo'sinda ish olib borishlari farzandlarining dunyoqarashini kengayishiga olib kelib, yaxshi natija beradi. Bolalarning maktabda olgan tabiat haqidagi bilim va saboqlarini ota-onalar ularga kundalik hayotda rioya qilishlarini va amalda tatbiq etishlarini tushuntirishlari lozim. Farzandlarimiz munosabatida isrofgarchilik alomatlariga aslo yo'l qo'ymaslik, uni oldini olish, tejamkorlik va tadbirkorlik xislatlarini yoshligidanok singdirish zarur. Tabiat tuganmas xazina emas, ko'plab tabiat boyliklari tiklanmaydi.



Bolalarimizni bo'sh vaqtlarida bevosita tabiat qo'ynida, hayvonot va o'simlik olamining turli tuman ekanligini anglashi, rang-barang go'zalliklaridan ularni bahramand qilish borasida imkon qadar birgalikda tabiat qo'yiga sayohatlar uyushtirish. Zero, biz ota-onalar, ustoz-murabbiylar va barchamiz bolalarimizning barkamol inson bo'lib voyaga yetishiga va ularning o'z ona zamnini naqadar asrab-avaaylashga qodir ekanligiga javobgarmiz.

Oilada ekologik tarbiya masalalari jamiyatning umumiy taraqqiyotiga va kelajak avlodlar farovonligi uchun muhimdir. Shu boisdan har bir oilada, har bir insonda atrof-muhitni asrab-avaaylashga oid yuqori darajadagi madaniyat va mas'uliyat shakllantirish lozim.

Har bir oila a'zosi tabiat bilan uyg'unlikda yashovchi, tabiatga muhabbat va hurmatda yashovchi shaxs bo'lib ulg'ayishi shartdir. Bu o'rinda ota-onalar va maktab ma'muriyati o'rtasida mustahkam hamkorlik o'rnatilishi zarur.

Ekologik madaniyatning shakllanishida oila muhitining roli nihoyatda katta bo'lib, oilada tarbiyalangan axloqiy qadriyatlar bolalarda tabiatga mehr va g'amxo'rlik hissini uyg'otadi.

Shu sababli ota-onalar farzandlariga tabiatni asrash, chiqindilarni to'g'ri utilizatsiya qilish, suv va energiya resurslarini tejash, atrof-muhitni ifloslantirmaslik kabi ekologik odatlarni bolalikdan singdirishlari zarur.

Natija

Maqolada oilada ekologik tarbiya berishning ahamiyati yoritilgan bo'lib, bu jarayon boshlang'ich ta'lim texnologiyalari yordamida yanada samarali tashkil etilishi mumkinligi ko'rsatildi. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ekologik bilim va ko'nikmalarni berishda interfaol usullar, loyihalar, ko'rgazmalar va amaliy mashg'ulotlar qo'llanilishi, shuningdek, ota-ona va maktab hamkorligini yo'lga qo'yish o'quv jarayonini boyitadi. Shu tarzda, oila va ta'lim muassasalari o'rtasida uzviy bog'lanish hosil qilib, bolalarda atrof-



muhitni muhofaza qilishga doir ekologik madaniyat va mas'uliyat hissi kuchaytiriladi. Natijada, boshlang'ich ta'lim texnologiyalari asosida shakllantirilgan ekologik tarbiya yosh avlodni sog'lom va barqaror kelajak sari yetaklaydi. Bolalar tabiatdagi o'zgarishlar, ekologik muammolar haqida to'g'ri ma'lumotlarga ega bo'lishi va ularni anglab yetishi lozim. Bu esa ularning ongli va mas'uliyatli fuqarolar bo'lib yetishishiga xizmat qiladi.

Bugungi kunning global ekologik muammolari barchani, ayniqsa yosh avlodni o'zgarishlarga faollik bilan jalb qilishni talab etadi. Shuning uchun ota-onalar va muallimlar birgalikda bolalarda ekologik bilim va qadriyatlarni rivojlantirishda hamkorlik qilishlari shart.

Xulosa

Mazkur tadqiqot shuni ko'rsatadiki, oila boshlang'ich ta'lim muhitida ekologik tarbiyaning muhim asosidir. Bolalar hayotining ilk bosqichlarida o'z atrof-muhitiga bo'lgan munosabatlari shakllanadi, shuning uchun sog'lom va xavfsiz tabiiy muhitni asrashga oid qadriyatlarni oila orqali singdirish muhimdir. Boshlang'ich ta'limda ekologik tarbiyaga alohida e'tibor qaratish, zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda, bolalarning ekologik ongini rivojlantirish va ularni tabiiy muhitni muhofaza qilishga faol jalb qilish imkonini beradi. Shu bois, ota-ona va maktab o'rtasida samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish, boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun ekologik bilimlarni amaliy ko'nikmalarga aylantirishda hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qiladi. Natijada, boshlang'ich ta'lim bosqichida shakllantirilgan ekologik madaniyat yosh avlodning sog'lom va barqaror rivojlanishiga poydevor yaratadi hamda kelajakda mamlakatimiz ekologik xavfsizligini ta'minlashga xizmat qiladi.